

Darsda Ingliz Tilidan Foydalanish Usullari

Ahmedova Malika Abrorjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, uchinchi kurs talabasi

Maqsudova Shahnoza

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida ingliz tilidan foydalanish usullarini o'rgatish va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, darsni samarali olib borish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ham bir nechtasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, o'rganish usullari, qiziqish, faollik, zamonaviy metodlar, Shexter usuli, Pimsler usuli, Dragunkin usuli, Petrov usuli.

KIRISH

So'nggi yillar ichida chet tillarini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Hozirgi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelmoqda. Yurtimizda oliy ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarni tayyorlash va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish jarayonida mutaxassislik bo'yicha orginal adabiyotni o'qish, xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirok etish malakasini shakillantirish maqsadida ingliz tili darslari o'tilmoqda.

O'quvchi yoshlarga xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qizishlarini orttirish, ulardagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, qo'llab-quvvatlash ishlarini olib borish ingliz tilini o'rganishni yanada kuchaytiradi. O'quvchi yoshlarda ingliz tilini o'rgatishda quydagi usullardan foydalanish samaraliroq bo'ladi:

1. Turli xil zamonaviy elektron manbalar bilan darslarni olib borish;
2. Dars jarayonlarida chet tilini o'rganish bo'yicha har xil metodlardan foydalanish;
3. O'rganilayotgan darsliklardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish;
4. Ingliz tili xonalarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash;
5. O'qitish jarayonida talabalarni rag'batlantirish va qiziqtirishga e'tibor qaratish.

O'quvchilarda ingliz tilidan foydalanish darajasini oshirish:

O'qtuvchi har doim dars jarayonida talabalarni rag'batlantirishi, darsda qatnashtirishi, ko'rsatmalar berishi, oldingi bilimlarini tekshirishi, talabalarni gapirishga undashi, uy vazifalarini berishi zarur. O'qtuvchi talabalariga ingliz tilida gapirishga bo'lgan ishonchini rivojlantirishiga yordam berishi kerak. Sinfdagi muntazam tinglash va gapirish, kichik tadbirlar, o'quvchilar bilan salomlashish, darsda faol qatnashish, yangi mavzuni tanishtirish yoki mavzuga oid ko'rsatmalar berish kabi narsalar talabalarni tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Qachonki o'quvchi fanga qiziqsagina darsda faol qatnashib, bilimini oshira oladi. Shuning uchun o'quvchilarni darsga qiziqishini oshirish maqsadida o'qtuvchi dars jarayonida yangi turli xil metodikalarda foydalana olishi kerak.

Ingliz tilini o'rganishning samarali usullari:

Shexter usuli => bu usul o'z ona tilimizni qanday qilib o'rganishga o'xshaydi. Muallif kichik yoshdagi bolalarni qay tarzda gapirishni o'rganishini misol keltiradi. Chunki yosh bolalarga hech kim jumlar, holatlar, nutq qismlarini qurish qoidalarini o'rgatmaydi. Shuning uchun ham *Igor Yuryevich Shekhter* ingliz tilini shu holatda o'rganishni taklif qiladi.

O'quvchilarga ingliz tilini o'rganishning muhim ahamiyatlaridan biri shuki, birinchi darsdanoq o'quvchiga ma'lum bir topshiriq yuklash, masalan suhbatdoshining kasibini o'rganish. Shuningdek, hamma o'quvchilar "etyudlar" nomli narsalarni o'ynashadi, bu yerda o'quvchilar har xil rollarda harakat qilishadi. Shuningdek ular muommoni yechishga harakat qilishadi. Ingliz tilini bilish darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqat natijasida xorijiy til nutqidan foydalanishga bo'lgan qo'rquv hissi yo'qola boshlaydi.

Xorijiy tilning bunday texnikasi uch bosqichdan iborat bo'lib, ular:

Birinchisida leksik birliklar, so'zlar, iboralar beriladi;

Ikkinchi bosqichda esa grammatik;

Uchinchi bosqichda sintaktik tuzilmalarda foydalanish kuzatiladi.

Ushbu texnika bir necha bor qo'llanilgan va samaradorligi tasdiqlangan. Hozirgi kunga kelib pedagogik psixologlar nuqtai nazaridan ham bu tizim eng muvaffaqiyatlilaridan biri deb hisoblanadi.

Pimsler usuli => Doktor Pol Pimsler o'ttiz daqiqali darslarning samarali tizimini ishlab chiqqan. Har bir dars ikki kishi tomonidan aytiladi: bizning hamyurtimiz va ingliz tilida so'zlashuvchi. Buning yordamida hamda maxsus yodlash texnologiyasi tufayli har bir o'quvchi har bir dars uchun ingliz tilidagi yuzlab so'z va iboralarni o'rganadi. Darsning mohiyati maruzachilar aytib o'tiladi va shuningdek topshiriqlar ketma-ketlikda berib boriladi.

Ushbu texnikaning eng afzallik tomoni shundaki, o'quvchilarning harakatchanliklarini oshirishni o'z ichiga oladi. Qulayliklaridan yana biri bu o'zingiz xohlagan joyda audio vazifalarni bajarishingiz mumkin. Lekin buning salbiy tomoni ham bir ya'ni yuqori sifatli talaffuz va bilimlarni o'zlashtirish testining yo'qligidir.

Dragunkin usuli => Aleksandr Nikolaevich Dragunkin usulining o'ziga xos xususiyati shuki, har qanday chet tillarini o'rganishda ona rus tiliga yo'naltirilganlikdir. Tilni o'rganishni juda soda deb atagan muallif, uning ildizlari qadimgi rus tiliga, Grammatik zamon tizimiga borib taqalishini ta'kidlaydi. Aleksandr Nikolaevich Dragunkin kursi o'quvchilari rus harflarida transkripsiya qilingan yangi so'zlarni o'rganadilar va grammatik konstruktsiyalar bizga maktabdan ma'lum bo'lgan o'n ikki zamonga emas, balki o'tmish, hozir, kelajak va ularning o'zgarishlariga bo'linadi.

Aleksandr Nikolaevich Dragunkinning o'z maktablari tarmog'i mavjud, unda o'quvchilar uch turdagi kurslarni samarali o'zlashtirishlari mumkin. Bular:

1. Asosiy
2. Qisqa
3. Suhbat

Mustaqil o'rganish uchun esa tilshunosning til o'rganishga innovatsion yondashuvini o'z ichiga olgan "A Little Leap into English" kitobi tavsiya etiladi. Dragunkin tizimidan foydalanib, o'quvchilar fe'llarning ishlatilishini ossongina tushinishlari, maqolalardan foydalanish qoidalarini yodlashlari va shuningdek, jumalarni qurishning asosiy tamoyillarini o'zlashtirishlari mumkin. Lekin, Dragunkin usuli ko'plab salbiy sharhlarga ega. Ya'ni, talaffuzni va nazariy bilimlarning yetarli darajada emasligi tanqid qilindi.

Petrov usuli => Dmitriy Petrov ta'kidlashicha, xorijiy tilni 16 soat davomida o'rganishingiz mumkin. To'g'ri, Dmitriy Petrov yana bir bor aniqlaydiki, biz Buyuk Britaniyada tug'ilgan fuqaro

kabi ingliz tilini o'zlashtirish haqida emas, aksincha, asosiy bilimlar haqida gapiramiz. Petrovning darslari ingliz tilida so'zlashadigan muhitga tushib qolish jarayonida omon qolish va o'zingizni ehtiyojingga tushuntira olish va shuningdek, javobni tushuning uchun yetarli.

Dars jarayonida o'qtuvchilar innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari kerak. Ya'ni, darsga yangiliklar kitishlari, zamonaviy metodlardan foydalanishlari zarur. Chunki o'qtuvchilar darsda o'quvchilarni tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishlari kerak. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning tafakkuri, tasavvurlari, dunyoqarashlari va qiziqishlarini orttirish bo'yicha olib borilgan tadbirlarda o'z samaradorligini topadi. Talabalar ingliz tilini o'rganishlari uchun ingliz tilining grammatikasi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari uchun ular, birinchi navbatda o'z ona tilining grammatikasini yetarli darajada bilishlari va jonli nutqda to'liq rioya qilishi bilan xarakterlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishni yetarlicha e'tibor berilishi kerak. Shuningdek, ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bundan tashqari, dars o'qtuvchi va talabalarning ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil va erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha juda ko'p yangi metodikalar mavjud va o'qtuvchilar darslarda har xil metodlardan foydalana olishlari zarur. Shundagina o'quvchilarda ham darsga va tilga bo'lgan qiziqish ortadi va darslarni yaxshi o'zlashtiradila

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. //TESOL Quarterly..., - London. 2006.
2. D. B. Muminova., D. I. Normatova Nofilologik institut talabalari uchun ingliz tili grammatikasidan uslubiy qo'llanma. – Toshkent 2016.
3. Davlatov K.D. “XORIJIY TIL (DEUTSCH) fani bo'yicha O'QUV USLUBIY MAJMUA”. Toshkent – 2019
4. Пассов Э. И. общительный метод обучения иностранного разговора. – Москва., 1985.